

Hokim yordamchilarining vazifalari nimalardan iborat?



Hokim yordamchilarining vazifalari nimalardan iborat?

Prezidentning 2021 yil 16 dekabrda PQ-54-sonli qaror bilan hokim yordamchilariga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

- tomorqa xo'jaliklari bilan agrosanoat klasterlari, tayyorlov, qayta ishlash va eksportyor korxonalarini jalb etgan holda kooperatsiya aloqalarini tashkil etishga ko'maklashish;
- aholi xonadonlarida, qoida tariqasida, 100 bosh parranda, 5-10 bosh kurka, 20 bosh quyon, 5-6 bosh qo'y va echki, 5 ta asalari uyasi boqishni tashkil etish;
- mahsulot yetkazib beruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar ro'yxatini shakllantirgan holda, joylarda "tarqatish va mahsulotlarni yig'ib olish bo'yicha mobil xizmatlar" faoliyatini yo'lga qo'yish;

- “xonadonbay” ishlash asosida hududlarning tuproq-iqlim sharoiti va hudud aholisining tajribasidan kelib chiqqan holda tomorqa xo‘jaliklarini “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida mahsulot yetishtirishga ixtisoslashtirish;

- har bir mahallada kooperatsiya asosida parranda, quyunchilik, qo‘y-echkichilik, asalarichilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanish istagini bildirgan yetakchi tadbirkorlarni aniqlash shular jumlasidandir.

Qarorga muvofiq hokim yordamchilarining tavsiyasiga ko‘ra “Tomorqa xizmati” MCHJlarga urug‘lik va ko‘chat, motokultivator va minitraktor, inkubator xarid qilish hamda aylanma mablag‘ uchun 300 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratiladi.